



1-fevraldan nimalar o'zgaradi?

2-betda o'qing



Qurigan daraxt uchun jarima to'lashga tayyorman

3-betda o'qing

INSON va qonun

2024-YIL
30-YANVAR
SESHANBA

№ 04
(1416)

www.hudud24.uz

www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official) facebook.com/hudud24official/

@adolat_nashrlari




"ADOLAT" milliy
huquqiy axborot
markazi nashrlariga
obuna bo'ling!



"Adolat
nashrlari"
telegram
kanalida
kuzating!



"Yoshlar daftari"ga kiritilganlar uchun NAVBATDAGI IMTIYOZ



"BIR OYLIK ARMIYA" XARAJATI

Yoshlarga bir oylik armiya to'lovi yoshlar yetakchisining tavsiyasi asosida to'lab beriladi. Buning uchun yoshlar ariza va mudofaa bo'limi bergan shartnoma nusxasi bilan tuman (shahar) yoshlar ishlari bo'limiga murojaat qilishi kerak. Hujjatlar 3 ish kunida mahalladagi yoshlar yetakchisiga yuboriladi va u 5 ish kunida hujjatlarni ko'rib chiqib, armiya xarajatlari qoplash yoki uni rad etish haqida yoshlar ishlari bo'limiga xabarnoma yuboradi. Pul ajratish rad etilganda u asoslantirilgan bo'lishi lozim. Ariza qanoatlantirilganda pul 3 ish kunida mudofaa bo'limi hisob raqamiga o'tkazib beriladi.

KAFILLIK

Yangi oila qurgan va nikohi qayd etilganiga 3 yildan oshmagan yoshlarga o'z xonadonida qo'shimcha uy-joy qurish uchun 33 million so'mgacha garovsiz kredit ajratishda kafillik beriladi. Pul berilmaydi, pul bankdan kredit qilib olinadi, kreditga kafillik beriladi. Kafillik olish uchun yoshlar ishlari bo'limiga ariza hamda bankning kafillik berish haqidagi xati bilan murojaat qilinadi. Hujjatlar 3 ish kunida mahalladagi yoshlar yetakchisiga yuboriladi va u 5 ish kunida hujjatlarni ko'rib chiqib, kafillik berish yoki uni rad etish haqida yoshlar ishlari bo'limiga xabarnoma yuboradi.

KVARTIRA IJARASI

Yosh oilalarga 12 oygacha turar joy ijarasi uchun har oyda BHMning 3 baravaridan oshmagan miqdorda subsidiya ajratiladi. Bunda er-xotinning har ikkisi 30 yoshdan oshmagan (31 yoshga to'lmagan), o'zlarining nomida uy-joyi bo'lmagani, avval imtiyozli ipoteka krediti orqali uy-joy, subsidiya va boshqa imtiyozlar olmagan bo'lishi kerak. Mazkur imtiyozdan foydalanish uchun yoshlar ishlari bo'limiga arizaga ilova qilinib turar joy ijarasi shart-

nomasi nusxasi hamda shartnomaning soliqda hisobga qo'yilgani haqidagi bildirishnoma beriladi. Boshqa barcha ma'lumotlar yoshlar ishlari bo'limi tomonidan mustaqil tekshiriladi. Hujjatlar 3 ish kunida mahalladagi yoshlar yetakchisiga yuboriladi va u 5 ish kunida hujjatlarni ko'rib chiqib, subsidiya ajratish yoki uni rad etish haqida yoshlar ishlari bo'limiga xabarnoma yuboradi. Subsidiya berish qanoatlantirilganda, oylik ijara to'lovi har oyning 5-sanisigacha uy-joy egasining, ya'ni ijaraga bergan shaxsning plastik kartasiga o'tkazib beriladi.

NAQD PULDA KREDIT

Yoshlar Savdo-sanoat palatasi va "Yoshlar - kelajagimiz" jamg'armasi tomonidan 48 soatlik (haftalik) o'quv dasturi asosida o'quv kurslarida tadbirkorlikka bepul o'qitiladi. Shuningdek, tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagida bo'lgan yoshlarga "Mikrokreditbank" ATB, "Agrobank" ATB va AT "Xalq banki" filiallari orqali: - tadbirkorlik tashabbusiga ega yoshlarga o'z biznesini tashkil etish uchun 33 million so'mgacha kreditlar garovsiz; - kichik tadbirkorlik sub'ektlariga kafillik asosida 225 million so'mgacha kreditlar ajratiladi. Kreditlarni ilgari olingan kreditlar yoki har qanday boshqa qarzlarni qaytarishga, shaxsiy ehtiyoj uchun avtotransport sotib olishga, ma'muriy xarajatlarni to'lashga, jumladan, avtotransport vositasining ta'minoti, mebel, aloqa xizmatlari to'lovi va uyali telefon sotib olishga hamda qonunchilik hujjatlari va Markaziy bankning qoidalarga ko'ra taqiqlangan faoliyatlarga ajratishga yo'l qo'yilmaydi. Kreditlar hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida 14 foiz stavkada: oilaviy tadbirkorlik, daromad olishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug'ullanish istagini bildirgan yoshlarga - 3 oydan 6 oygacha bo'lgan imtiyozli davr bilan 3 yilgacha muddatga; chorvachilik (chetdan keltirilgan naslli qo'y va echki), baliqchilik va parrandachilik (tuxum yo'nalishi) uchun - 1 yilgacha bo'lgan imtiyozli davr bilan 3 yilgacha muddatga; bog'dorchilik, uzumchilik va limonchilikni tashkil etish, issiqxona, qishloq xo'jaligi texnikasi va asbob-uskunalarini xarid qilish uchun - 3 yilgacha bo'lgan imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga ajratiladi. Imtiyozli davr degani o'sha davr mobaynida kreditga foiz hisoblanmaydi. Yoshlarga ayrim turdagi faoliyatni amalga oshirish (kasanachilik, hunarmandchilik, issiqxona qurish va shu kabilar uchun zarur xomashyo, ehtiyoj qism hamda qurilish mollari sotib olish) maqsadida 5 million so'mgacha miqdorda kredit naqd pulda berilishi mumkin. Kreditlar "Yoshlar daftari"-da hisobda turgan yoshlarning qat'iy navbatma-navbat murojaat qilishi asosida Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarining yagona platformasi orqali ajratiladi.

Dilmurod RAJABOYEV,
huquqshunos



EKOLOGIK MUAMMOLARNI MA'MURIY YO'L BILAN HAL ETIB BO'LMAYDI

5-betda o'qing



ALAM, NAFRAT, O'ZIGA NISBATAN ADOLATSIZLIK... NEGA?

6-betda o'qing



SUV RESURSLARINI TEJASH NIMA UCHUN ZARURLIGINI BILASIZMI?


BMT Jahon cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2050-yilda dunyo aholisining to'rtidan uch qismi qurg'oqchilikdan aziyat chekadi.

8-betda o'qing

2 QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR

2024-yil 1-yanvardan boshlab fuqarolarga davlat pensiyalarini tayinlash uchun amaldagi tartibga qo'shimcha ravishda ularning xohishiga ko'ra, davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ham murojaat qilish huquqi berildi.

ENDI PENSIYA TAYINLASH UCHUN DAVLAT XIZMATLARI MARKAZIGA MUROJAAT QILISH MUMKIN



Fuqarolarga davlat pensiyalari tayinlanganidan so'ng ularning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'larini Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoki AT "Xalq banki"ning mobil ilovasi orqali olish imkoniyati yaratiladi.

Bunda, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari tomonidan shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'larini olish huquqini beruvchi sertifikat berish tartibi bekor qilinadi.

2025-yil 1-martdan boshlab fuqarolarga yoshga doir pensiyalarni "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 7-moddasida belgilangan yoshga to'lishi munosabati bilan alohida murojaat talab etmagan holda proaktiv shaklda tayinlash tartibi joriy etiladi.

Bunda, yoshga doir pensiyalar Pensiya jamg'armasining axborot tizimi orqali tegishli vazirlik va idoralararo axborot almashinuvi asosida olinadigan fuqaroning ish staji, ish haqi hamda boshqa ma'lumotlariga asosan davlat pensiya ta'minoti to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan tartib va me'yorlarga muvofiq hisoblanadi va tayinlanadi.

Fuqarolarga pensiya yoshiga yetib mehnat faoliyatini davom ettirgan holda keyinchalik yoshga doir pensiyaga chiqish istagini bildirganida proaktiv shaklda tayinlangan pensiyani rad qilish huquqi beriladi.

Yoshga doir pensiya fuqaroning keyinchalik qilgan murojaatiga asosan davlat pensiya ta'minoti to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan muddatlarga muvofiq qaytadan hisoblanadi va tayinlanadi.

Shirin ZAKIRYAYEVA,

Samarqand shahar adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi bosh mutaxassisi

1-FEVRALDAN nimalar o'zgaradi?



MAHSULOT XAVFSIZLIGI UCHUN

O'zbekiston hududiga olib kirishda ularning sifati, xavfsizligi hamda servis kafolatini ta'minlaydigan ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili yoki rasmiy dilerlari mavjud bo'lishi talab qilinadi.

Bunda, ishlab chiqaruvchining vakolatli vakili yoki rasmiy dilerlarning servis xizmati mavjud bo'lishi kerak.



SHARTNOMA ASOSIDA IJTIMOY XIZMAT KO'RSATILADI

"Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi tomonidan "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimida o'zgarar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashovchi hamda yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarning reyestri yuritilishi belgilangan bo'lib, ushbu reyestrga kiritilgan yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy xizmatlar va yordam ijtimoiy xizmat ko'rsatish shartnomasi asosida ko'rsatiladi;



FAQAT MAHALLIY ISHLAB CHIQUVCHILARDAN XARID QILINADI

Qonunchilikka ko'ra, Davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan ichimlik va oqova suv yo'nalishidagi loyihalar doirasida qurilish materiallari, uskuna va jihozlar faqat mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilinadi.



KASANACHILIKDA YANGI ISH BOSHLAYOTGAN XOTIN-QIZLAR...

Kasanachilik va hunarmandchilik yo'nalishida yangi ish boshlayotgan xotin-qizlar uchun tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish, rivojlantirish, takomillashtirish hamda ularga uslubiy yordam berish maqsadida ta'lim tashkilotlarida tajribali kasanachi va hunarmandlarni jalb etgan holda kasb-hunarga o'qitish kurslari tashkil etiladi;

xotin-qizlarni kasanachilik va hunarmandchilik yo'nalishlarida kasb-hunarga o'qitish bilan bog'liq xarajatlar Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi mablag'lari hisobidan tasdiqlangan xarajatlar smetasi doirasida moliyalashtiriladi.

Bunda, ta'lim tashkilotlarida kasb-hunarga o'qitilgan har bir bitiruvchi xotin-qiz uchun sarflangan o'qitish xarajatlarning 70 foizi, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 5 barobaridan oshmagan qismi davlat tomonidan qoplab beriladi.

BARQARORLIK REYTINGI JORIY ETILADI

Qonunchilik talablariga rioya etgan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarni aniqlash va qo'shimcha rag'batlantirishni nazarda tutuvchi Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi joriy etiladi.

Reyting doirasida tadbirkorlar quyidagi toifalarga ajratiladi:

- ☑ "AAA", "AA" va "A" toifalar – yuqori barqarorlik reytingi;
- ☑ "VVV", "VV" va "V" toifalar – o'rta barqarorlik reytingi;
- ☑ "SSS", "SS" va "S" toifalar – qoniqarli barqarorlik reytingi;
- ☑ "D" toifa – quyi barqarorlik reytingi.




IMPORT BO'YICHA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI UNDIRISH

Elektrotexnika sanoati korxonalari tomonidan ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun xom ashyo va butlovchi qismlarni import qilishda, shu jumladan 120 kun kechiktirib to'lashda, qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olish imkoniyatini beruvchi tizimda bir vaqtning o'zida istalgan miqdorda bojxona yuk deklaratsiyasini yuborish, import bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini birinchi navbatda soliq organlaridagi hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi hisobidan undirish, so'ngra yetmagan qismi bo'yicha undiruvni bojxona depozitidagi mablag'larga qaratish tartibi joriy etiladi.

Ma'rufxon LUKCHAYEV,

"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi mas'ul xodimi



Barchamiz bu hayotda yo'lovchimiz. Manzilimiz har xil – olis va yaqin, niyatlar ham turlicha – yaxshi – yomon. Kundalik hayotda hammamiz turfa fe'lli odamlarga, turli voqea va hodisalarga duch kelamiz. Hayotdan olingan bu kichik voqealarda ayrim insonlarning asl qiyofasi yashirin.

HAYOTNING KO'Z ILG'AMAS ZARRALARI

HAYDOVCHINING HIKOYASI

"Har kuni odamlar xizmatidaman. Turli qiyofalar, turli xarakterlar bilan to'qnashaman. Bir kunlik taassurotlarimni aytсам xuddi kinolentasiga o'xshaydi. Taksiga pulsiz chiqqan yo'lovchi manziliga yetganda buni eslashi va uzr ham so'ramay mashinadan tushib ketishi, yoki mashina chaqirib, telefonini o'chirib qo'yishi, sizni kalaka qilishi, buyurtmani boshqa manzilga berib, sizni boshqa manzilga burishi... Xullas, bunday hangomalar juda ko'p. Yaqindagi bo'lgan bitta holat esa, meni ancha hushyor torttirdi. "Yandeks" orqali buyurtma bergan navbatdagi mijozni kutib turgandim, vaqt allamahol bo'lishiga qaramasdan bir yoshgina ayol chiqdi. Birinchii hayratim – o'rangan begona ayolning mashina orqa o'rindig'iga emas, oldiga o'tirganidan boshlandi. Uning tap tortmay, "Cheksam maylimi?", degan savolini eshitib, battar taajjublandim. Men mashina salonida chekish mumkinmasligini, "Yandeks" kompaniyasiga shikoyat qilishlarini aytib, e'tiroz bildirishga og'iz juftlashim bilan u yana hech istiholasiz "elektron-sigaret chekaman, xavotirlanmang", deb qoldi. E'tirozga so'z topa olmadim... Muslima "qiyofasi"dagi ayolning haqiqiy basharasini ko'rib, to'vba dedim xolos."

"ISHIMDAN VOZ KECHGANMAN"

Bu yigit esa adolatsizlikka chiday olmasdan o'z ishidan voz kechishga majbur bo'lganini aytib berdi:

"Oliy ma'lumotliman. Majburiy ijro byurosida ancha yildan buyon ishlardim. Oylik maoshim va xizmat lavozimim ham yomon emasdi. Ishimizni bilasiz. Xohlaymizmi, yo'qmi, sud qarorlarining ijrosini ta'minlash uchun har xil odam bilan to'qnashamiz. Ko'pchilikning bizdan norozi bo'lishi tabiiy. Kimlarningdir qarzni to'lashga imkoni boru ammo to'lamaydi, kimlardir esa nochor, imkonsizligidan to'lay olmaydi.

Odatdagi ish kunlarimizdan birida davlat resurslaridan xufiyona foydalanayotgan "ishbilarmonning, aniqrog'i, "litsenziyalangan o'g'ri"ning siri ochildi. Ammo "yuqori"dan ko'rib-ko'rmaslikka olishimiz kerakligini, yopiq"liq qozon yoqiqligicha qolishini uqtirishdi. Davlatga millionlab zarar yetkazgan "ishbilarmon" suvdan quruq chiqdi. Xiyonatiga yarasha chora ko'rish o'rniga o'z qing'ir ishini davom ettirdi. Mening noroziligim esa hech narsani hal qilmasligini tushundim.

Yana bir gal ijro uchun hech kimi yo'q, yolg'iz kekxa onaxonning uyiga bordik. Onaxon to'lovlardan qarzdorlik borligini biladi, ammo to'lashga imkoni yo'q. To'lovlari

ustiga "qo'ndirilgan" penya esa "otning kallasi"dek. Nochor ahvolda yashayotgan mushtipar ayolning uyidagi mol-mulkini qarzdorlikka qaratishga hujjat qilishni talab qilgan rahbarga qarshi chiqdim: "Bechora nochor ekan, yolg'iz kekxa ayolga jabr qilmaylik", dedim. Boshliq menga davlatga qarshi chiqayapsanmi, deb akt tuzishga majburlashiga, aks holda o'zingma qarshi chora ko'rishni mumkinligini aytib po'pisa qilishiga chiday olmadim. Xufiyona o'g'rilik qilayotgan, davlatga katta zarar yetkazayotgan o'sha "biznesmen"ning qilmishini shartta yuziga soldim. Boshliq battar g'azablandi, o'zini oqlashga so'z topa olmadi, ammo men bunday odamlar bilan ishlay olmasligimni anglab, ishdan bo'shab ketdim. Hozirgacha ishsizman, ammo vijdonim tinch".

QURIGAN DARAXT UCHUN JARIMA TO'LAHGA TAYYORMAN

Yana bir suhbatdoshimiz yoshi ulug', hayotning pastu balandini ko'rgan inson. Poytaxt havosining ifloslanishidan aziyat chekayotganini, oilasidagilar turli allergik xastaliklarga chalinayotganini aytib kuyindi. Qurilishlarni deb katta boyligimizni – jonli daraxtlarni yo'qotayotganimizni afsus bilan ta'kidladi. Yangi turar joy binolarini qurayotganlar yuzlab daraxtlarni kesib tashlayotganiga barchamiz guvohimiz, ammo ularni to'xtatishga kuchimiz yetmaydi. Ularga jarima solish o'rniga, ko'rib – ko'rmaslikka olayotgan tabiatni muhofaza qilishga mas'ullardan esa foyda yo'q. Aslida ularning ayrimlarini tabiatga ziyon yetkazayotganlarning sheriklari desak, to'g'ri bo'ladi. Uch-to'rt yildan buyon hovlimiz darvozasi yonidagi qurib bitgan daraxtni kesib, o'rniga boshqa mevali daraxt ekishga ruxsat olmay ovorayu sarsonman. Mahalladan ruxsat olib berishini so'rab, bir necha bor murojaat qildim, ekologiyadagilar-ga tushuntirdim, kelib ko'ringlar dedim, afsuski, foydasi yo'q. Otam rahmatlik bir vaqtlar ekib ketgan, bugun faqat qurigan shoxlari qolgan shu daraxt uchun hatto jarima to'lashga ham tayyorman. Ammo shunda ham ruxsat berishmayotganiga nima deysiz?!

JURNALIST SHARHI:

Ha, zamondoshlarimizning kuyinganicha bor.

Odamlarning qiyofasi o'zgarayotgani, ayniqsa, ayollar, yoshlarning yuzidan hayo, ibo pardasi ko'tarilib ketayotgani, sharqona odobimiz, axloqimizdan ayrilayotganimiz achinarli albatta. Ayolning zimmasida millat tarbiyachisi degan mas'uliyatni nazarda tutadigan bo'lsak, ayoli tamaki chekadigan oilada qanday avlod voyaga yetishini o'ylashning o'ziyoq xavotirga soladi kishini.

Insoniylikdan, mehr-oqibatdan uzoqlashish ham millatimiz sha'niga yarashmaydigan illat. Keksalarni qadrlash, ularga muruvvatli bo'lish qonunlarimizda aks etgan bo'lishiga qaramasdan, ularning diliga ozor berayotganlar ham afsuski oz emas. Kommunal to'lovlarni vaqtida to'lashga mablag'i yetmayotgan kekxa mushtipar onaxoniga uydagi mulkini olib qo'yish bilan dag'dag'a qilgan majburiy ijro byurosidadagi amaldorning qilmishini garchi xizmatchilik bo'lsa ham oqlash qiyin.

Tabiat esa bizni qurshab turgan, bizni suyab turgan umumiy qo'rg'onimiz. Tabiatning o'z qonuni va oddiy haqiqati borligini, unga ozor bersak, ortig'i bilan o'zimizga qaytishini, tajovuz qilsak, toptasak u bizdan ayovsiz o'ch olishini ko'p hollarda unutib qo'yamiz.

Ko'chalarda "Daraxt arralaymiz!" degan yozuvli arra surati tushirilgan mashinalar paydo bo'lganiga ancha bo'ldi. Demak bu xizmat ommalashgani aniq. Haddimizdan oshib ketmayapmizmi?

Ingliz rassomi Frensis Bekon ta'biri bilan aytganda: "Tabiat ustidan hukmronlikni mo'jiza deb ataymiz. Ammo bu "mo'jiza" odatda boshimizga faqat kulfat yog'diradi".

Har bir kichik voqeada hayotning ko'z ilg'amas zarralari, ta'bir joiz bo'lsa zarbalari, kelajakka og'ir asoratlari borligini sezgandirsiz?!

Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" muxbiri

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va ommaviylashuvi mehnat munosabatlarining yangi shakli – masofadan turib ishlashning huquqiy tartibga solish zarurati paydo bo'ldi. Shu bois amaldagi Mehnat kodeksida masofaviy mehnat tushunchasiga doir yangi normalar o'rln olgan.

MASOFADAN TURIB ISHLASH MUMKINMI?



Mehnat kodeksining 461-moddasiga binoan, masofadan turib ishlovchi xodim o'z ish vaqtining davomiyligini, ishlab chiqarish topshirig'ining hajmi va mehnat shartnomasida belgilangan boshqa shartlar asosida ish jadvalini hamda ish tartibini mustaqil ravishda belgilaydi. Aynan mehnat shartnomasida ko'rsatilishi kerak bo'lgan ish vaqtini mustaqil ravishda belgilash imkoniyatining mavjudligi masofadan turib ishlovchi xodimlar ish vaqtining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Shu sababli, tashkilotning ichki tartib qoidasida belgilangan ish vaqti masofadan ishlaydiganlar uchun ish vaqtini belgilashga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi.

Shuningdek, masofadan turib ishlovchi xodim tomonidan o'z ish vaqtini mustaqil ravishda belgilash imkoniyatidan kelib chiqqan holda xodim ish vaqti turini (kunduzgi, tungi vaqtda ishlash va boshqalar) o'zi erkin ravishda tanlashi muhim ahamiyatga ega.

Masofadan turib ishlovchi xodim bilan ish beruvchi o'rtasida aralash tartibli rejimda – hafta kunining ma'lum kunlarini yoki ish kunining ma'lum soatlarini bevosita ish beruvchining nazoratida bo'lgan statsionar ish joyida, qolgan ma'lum bir qismini o'ziga qulay bo'lgan joyda masofadan turib ishlashi orqali o'z vazifalarini bajarishi kelishib olinishi mumkin. Aralash tartibli rejimda ishlovchi xodimning ham, statsionar ish joyida ham masofadan turib internet orqali vazifalarni bajarish muddati ish vaqti tarkibiga kiritiladi va mehnat shartnomasida belgilab qo'yilishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Mehnat kodeksiga masofadan turib ishlovchi xodimlar tushunchasining kiritilishi mamlakatimizda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi hamda ish beruvchi va xodim o'rtasidagi mehnat munosabatlarida xodimning imkoniyatlari, individual xususiyatlarini inobatga olib, uning huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi huquqiy asos hisoblanadi.

Dilmurod AZZAMOV,

Yashnobod tuman adliya bo'limi
yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh
yuriskonsulti

4 ADLIYA ODAMLAR ORASIDA

Sariosiyo tuman 77-sonli umumta'lim maktabi chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani rahbari L. Alimov tuman adliya bo'limiga murojaat qilib, tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limidan qonunda belgilangan ustama pulini undirib berishda amaliy yordam so'ragan.

O'QITUVCHIGA USTAMA TO'LAB BERILDI



Aniqlanishicha, 77-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi direktorining 2021-yil 7-sentabrdagi 12-sonli buyrug'i bilan fuqaro L. Alimov haqiqatan ham chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani rahbari lavozimiga ishga qabul qilingan. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi "O'lis hududlarda joylashgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning mehnatini yanada rag'batlantirish to'g'risida"gi qaroriga asosan L. Alimovga belgilangan ustama puli 2021-yil sentabr oyidan 2022-yil iyul oyiga qadar to'langan bo'lsa-da, 2022-yil avgust oyidan 2023-yilning noyabr oyiga qadar ustama haqi to'lanmagan.

Tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining 2023-yil 10-iyundagi ma'lumot-nomasiga ko'ra, tumandagi 77-sonli umumta'lim maktabi L. Alimovga 2023-yil uchun zr.uzasbo.uz dasturiy majmuasidan shakllantirish jarayonida shtat jadvalariga ma'lumotlarni zr.uzasbo.uz sayti orqali chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani rahbariga ustama qo'shimcha rag'batlantirish pullarini dasturga kiritish imkoniyati mavjud emasligini ma'lum qilgan.

Vaholanki, Vazirlar Mahkamasining yuqoridagi qarori ilovasida umumiy o'rta ta'lim muassasalarida boshqa hududlardan kelib faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarga maxsus ustama belgilanadigan hududlar ro'yxatida Sariosiyo tuman "Xonjiza" mahallasi belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari, olis hududlarda joylashgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida boshqa hududlardan kelib faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarning bazaviy tarif stavkalariga ish stajidan kelib chiqib belgilanadigan maxsus ustamalar umumta'lim muassasasida 6 oydan - 3 yilgacha ishlagan davri uchun maxsus ustama miqdori 10 foiz qilib belgilangan.

O'rganishlar natijasiga ko'ra, fuqaro L. Alimovning manfaatini ko'zlab tuman adliya bo'limi tomonidan fuqarolik ishlari bo'yicha Sariosiyo tumanlararo sudiga da'vo arizasi kiritilib, javobgar - tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limidan L. Alimovga 17 million 100 ming 470 so'm belgilangan ustamani undirish yuzasidan sudning hal qiluv qarori chiqarildi.

Xurshidjon SHARIPOV,

Sariosiyo tuman adliya bo'limi bosh maslahatchisi



Buxoro tumanidagi "Istiqlol" mahallasida yashovchi fuqaro G. Rahmonovning mehnat ta'tili davrida moddiy yordam berilmagani to'g'risidagi murojaati tuman adliya bo'limi tomonidan o'rganib chiqildi.

DIREKTORGAMODDIY YORDAM BERILMAGAN

Aniqlanishicha, G. Rahmonova tumandagi 3-ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabi direktori lavozimida ishlab kelib, tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mudirining 2023-yil 27-oktabrdagi buyrug'i bilan 2023-yil 1-yanvardan 2023-yil 27-dekabr gacha ishlagan davri uchun unga 56 kalendar kundan ibo-

rat navbatdagi mehnat ta'tili berilib, bir oylik maoshi miqdorida moddiy yordam berish ko'rsatilgan.

Biroq buyruq ijrosi to'liq ta'minlanmay, G. Rahmonovaga 4 million 360 ming 919 so'mlik moddiy yordam berilishi "unutilgan". Vaholanki, Mehnat kodeksining 333-moddasida qayd etilganidek, ish beruvchi ish haqini, ta'til to'lovlarini, mehnat shartnomasi bekor qilingandagi to'lovlarni va (yoki) xodimga to'lanishi lozim bo'lgan boshqa to'lovlarni to'lash muddatini buzgan taqdirda, ularni to'lov muddatidan keyingi kundan e'tiboran to haqiqatda hisob-kitob qilingan kunni o'z ichiga olgan muddatgacha har bir kechiktirilgan kun uchun Markaziy bankning o'sha vaqtda amalda bo'lgan qayta moliyalashtirish stavkasidan kelib chiqqan holda foizlar (pullik kompensatsiya) bilan birga to'lashi shart.

Adliya bo'limi tomonidan tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi mudiri nomiga bo'limning 2023-yil 27-oktabrdagi buyrug'ida qayd etilgan maktab direktori G. Rahmonovaga bir oylik maoshi miqdorida moddiy yordam va to'lovning kechiktirilgan kunlari (2023-yil 28-oktabrdan 2024-yil 9-yanvargacha) uchun kompensatsiya to'lab berilishini yuzasidan taqdimnoma kiritildi.

Abdurahimxo'ja BAFAYEV,

Buxoro tuman adliya bo'limi boshlig'i

MUAMMO SUD ORQALI HAL BO'LDI

Toshkent viloyat adliya boshqarmasida ijtimoiy-iqtisodiy sohada huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish yo'nalishi bo'yicha o'tgan 2023-yil davomida 18 ta davlat tashkilotida 43 ta normativ-huquqiy hujjatlar qo'llanilishi ahvoli o'rganildi hamda sohani takomillashtirish yuzasidan 260 ta taklif ishlab chiqildi.

Shuningdek, 173 nafar tadbirkorlik subyekting murojaati ijobiy hal etildi.

Jumladan, "Shox Asr Market" MChJ rahbari A. Turg'unboyevning "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali sotib olingan noturar joy binosi uchun to'langan summadan chegirma qilinishi lozim bo'lgan pullarni undirishda amaliy yordam so'rab yo'llagan murojaati ko'rib chiqilganda "Shox Asr Market" MChJ va Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Toshkent viloyat boshqarmasi o'rtasida 2022-yil 15-noyabrda oldi-sotdi shartnomasi rasmiylashtirilgan bo'lib, shartnomada ko'rsatilgan 424 million 182 ming so'm pul mablag'i xaridor - MChJ tomonidan bir oy ichida (2022-yil 5-dekabr kuniga qadar) to'liq to'langani aniqlandi.

Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-oktabrdagi qarori bilan tasdiqlangan "Davlat ko'chmas mulk obyektlarini sotish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 90-bandiga ko'ra, agar xaridor oldi-sotdi shartnomasi tuzilgan kundan boshlab bir oy ichida sotib olish to'lovlarini to'liq amalga oshirsa, sotib olish to'lovlari summasidan oldi-sotdi shartnomasi tuzilgan sanadagi Markaziy bankning yillik qayta moliyalashtirish stavkasiga teng miqdorda chegirma beriladi. Agar sotib olish to'lovlari ushbu chegirmani hisobga olmagan holda amalga oshirilgan bo'lsa, sotuvchi tomonidan chegirma summasi belgilangan tartibda ortiqcha to'langan mablag' sifatida qaytariladi deb belgilangan.

Shunga asosan, adliya boshqarmasi tomonidan O'rtachirchiq tumanlararo iqtisodiy sudiga Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Toshkent viloyat hududiy boshqarmasidan "Shox Asr Market" MChJ foydasiga ortiqcha to'langan pul mablag'ini qaytarish yuzasidan da'vo arizasi kiritilib, sudning hal qiluv qaroriga asosan 63 million 627 ming 300 so'm pul mablag'ining qaytarilishi ta'minlandi.

Abdusodik SODIQOV,

Toshkent viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi



QARZDORLIK UNDIRILDI

"Fazliddin favvorasi" MChJning Andijon viloyat hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi bilan tuzilgan shartnomaga asosan Sirdaryo viloyatida yuz bergan baxtsiz hodisa tufayli uy-joylaridan ayrilgan fuqarolarga uy-joy qurib berilgani, to'lab berilishi lozim bo'lgan mablag' esa to'lab berilmayotganidan norozi bo'lib yo'llagan murojaati Andijon viloyat adliya boshqarmasi tomonidan o'rganib chiqildi.

Aniqlanishicha, "Fazliddin favvorasi" MChJ Andijon viloyat hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" IK o'rtasida 2020-yil 15-may kuni haqiqatan ham pudrat shartnomasi va 2020-yil 24-sentabr kuni qo'shimcha kelishuv shartnomasi tuzilgan.

Mazkur shartnomaga asosan MChJ tomonidan Sirdaryo viloyatida uy-joyidan ayrilgan fuqarolarga uy-joylar qurib berilgan. Biroq, jamiyatga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'larning bir qismi to'langan, qolgan 257 million 639 ming 963 so'm mablag' to'lanmagan.

Adliya boshqarmasi tomonidan qarzdorlikni undirish yuzasidan Andijon tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritilishi natijasida injiniring kompaniyasi hisobidan "Fazliddin favvorasi" MChJ foydasiga 257 million 639 ming 963 so'm mablag' undirilishi belgilandi.

Xuddi shunday holat "Begimoy binolari" va "Behruzbek Dilmurodov" MChJlarning arizalarini ko'rib chiqishda ham takrorlanib, umumiy holatda "Yagona buyurtmachi xizmati" IK hisobidan tadbirkorlar foydasiga 732 million 785 ming 841 so'm undirilishi yuzasidan sud qarori chiqarildi.

Alisher HASANOV,

Andijon viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi



Noqonuniy qarorlar bekor qilindi

Toshkent viloyat adliya boshqarmasi tomonidan o'tgan 2023-yilda jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlar alohida nazoratga olingan holda o'rganilishi natijasida 9 ming 79 ta murojaatning 8 ming 783 tasi yoki 96,7 foizi hal qilinishi, shu jumladan, 6 ming 273 tasi (71,4 foizi) qanoatlantirilishi va 2 ming 510 tasi bo'yicha huquqiy tushuntirish berilishi ta'minlandi.

O'rganish jarayonida aniqlangan qonunbuzilish holatlari bo'yicha vakolatli idoralarga taqdimnoma va da'vo arizalari kiritildi. Natijada 233,1 milliard so'mlik mablag' undirilishiga erishildi. 60,8 milliard so'mlik 956 ta da'vo ariza qanoatlantirilib, 10 ming 348 ta noqonuniy qaror bekor qilindi hamda haqiqiy emas deb topildi. Va 508 nafar aybdor shaxs intizomiy javobgarlikka tortildi. Shu jumladan, 45 nafari bilan mehnat shartnomasi bekor qilindi. 670 nafar shaxs esa ma'muriy javobgarlikka tortildi.

Xususan, Quyi Chirchiq tuman adliya bo'limi tomonidan "Olg'abos agro" MChJning parvarish qilib kelingan bog'i hamda yer maydoni tuman hokimligi tomonidan asossiz zaxiraga olinib, boshqa foydalanuvchiga berib yuborilgani natijasida yetkazilgan zararni undirishda amaliy yordam so'rab yozgan murojaati o'rganib chiqildi. O'rganish natijasida haqiqatan ham yer maydoni asossiz zaxiraga olinib, boshqa foydalanuvchiga berib yuborilgani aniqlandi. Quyi Chirchiq tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo ariza kiritilib, 417 million 854 ming so'm miqdorda yetkazilgan zarar tuman hokimligidan undirib berildi.

Shuningdek, Bo'ka tuman, "O'rtatepa" mahallasida yashovchi fuqaro I. Obidov tuman adliya bo'limiga murojaat qilib, 2014-2021-yillarda ishlagan davri uchun mehnat ta'tili olmagan, ushbu yillardagi mehnat faoliyati uchun foydalanmagan mehnat ta'tillari bo'yicha kompensatsiya to'lovlarini undirib berishda amaliy yordam so'ragan. Murojaat o'rganilishi natijasida, Mehnat kodeksining 234-moddasi birinchi qismi talablari buzilgani aniqlandi. Fuqarolik sudiga foydalanilmagan ta'til uchun 7 million 847 ming 85 so'm kompensatsiya pulini undirib berish yuzasidan da'vo arizasi kiritildi. Sud qarori bilan fuqaroga 7 million 847 ming 85 so'm undirib berildi.

Qahramon HAFIZOV,

Toshkent viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi



O'qishga ketgan pedagogning vazifasini bajargan o'qituvchiga haq to'lanadimi?

– Bir o'qituvchimiz o'qishga ketgandi. Menga uning vazifalari yuklatildi. Hozirda uning sinfiga rahbarlik ham qilyapman. Shunda menga sinf rahbarligi va daftar tekshirganim uchun ham qo'shimcha haq to'lanadimi?



– Mehnat kodeksining 116-moddasiga ko'ra, xodimning roziligi bilan unga ish kunining (sme-naning) belgilangan davomiyligi mobaynida xuddi o'sha ish beruvchida qo'shimcha haq eva-ziga mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatil-gan asosiy ish bilan bir qatorda, asosiy ishidagi kabi aynan o'sha kasb (lavozim) bo'yicha yoki boshqa kasb (lavozim) bo'yicha ham qo'shim-cha ishni bajarish topshirilishi mumkin.

Bu vaziyatda pedagog xodimlarga qo'shimcha vazifa yuklatilganlik uchun qo'shimcha haq to'lash Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 21-dekabrda qarori bilan tasdiqlangan "Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lash to'g'risi-da"gi Nizom talablari asosida amalga oshirilib, o'qituvchi tomonidan qo'shib olib borilgan darslar uchun ularga soatbay ravishda ish haqi to'lanadi.

Umumta'lim maktablari pedagog xodimlariga o'tgan darsi uchun soatbay haq to'lash "O'quv mashg'ulotlarini o'tkazganlik uchun mehnat-ga soatbay haq to'lash miqdorlari"ga (Adliya vazirligidan 2019-yil 22-aprelda ro'yxatdan o'tgan) ko'ra bazaviy lavozim maoshlariga nis-batan 1,20 foiz miqdorida amalga oshiriladi.

Ya'ni, o'qituvchi o'zining asosiy ishi bilan bir-galikda ishda vaqtincha bo'lmagan xodimlar-niing darslarini o'tadigan bo'lsa, ushbu o'tilgan har bir dars soati uchun odatdagiga nisbatan ko'proq ish haqi to'lab beriladi.

Bunda sinf rahbarligi hamda daftar tek-shirganlik uchun quyidagi miqdorda: sinfdagi o'quvchilar soniga ko'ra sinf rahbarligi uchun: 15 nafar o'quvchigacha – 258 ming 720 so'm; 16 nafari-dan 20 nafargacha – 309 ming 680 so'm; 21 nafardan 25 nafargacha – 361 ming 620 so'm; 26 nafari-dan 30 nafargacha – 412 ming 580 so'm; 31 nafar va undan ko'p o'quvchi bo'lganda – 517 ming 440 so'm qo'shimcha haq to'lab berilishi lozim.

Shuningdek, daftar va yozma ishlarni tek-shirganlik uchun: sinfdagi o'quvchilar soni 15 nafargacha bo'lganda – 86 ming 240 so'm, sinfdagi o'quvchilar soni 15 nafar va undan ortiq bo'lganda – 172 ming 480 so'm.

**Savolga Kegeyli tuman adliya bo'limi
yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i
Kazbek PALUANIYAZOV javob berdi**

Sanoat yuqori darajada rivojlangan asrimizda ekologik muammolar dunyo mamlakatlari oldida ko'ndalang bo'lib turibdi. Shu bois insoniyatdan atrof-muhitga oqilona munosabatda bo'lish, aholi-niing, ayniqsa, farzandlarimizning ekologik madani-yatini oshirish talab etiladi.



EKOLOGIK MUAMMOLARNI MA'MURIY YO'L BILAN HAL ETIB BO'LMAYDI

Albatta, ekologik muammolarni faqat ma'muriy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi. Bunga qo'shimcha ravishda dunyo hamjamiyatining tabiatga munosabati qay ahvolda ekan va bu qanday natijalarga olib kelishi haqidagi ilmiy yon-dashuvlar ham bo'lishi lozim. Masalan, Amerikada o'tkazil-gan tadqiqotlar shuni ko'rsatyaptiki, har bir dahada ekilgan daraxt o'sha hududdagi uylarning narxiga ta'sir ko'rsatib, o'rtacha 0,4 foizga oshirar ekan. Ya'ni daraxtlar haqiqatan boylik manbaasi – ularni ekish va parvarishlash unchalik qimmat emas. Ammo ko'chmas mulk egalari manfaatdor qiladigan omil. Qolaversa, mahallangizda kimdir daraxtlar-ga zarar yetkazsa, bilingki, sizning uyingiz narxiga salbiy ta'siri bor.

Prezidentimizning 2024-yil 4-yanvardagi "Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tad-birlar to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

Farmonda chiqindilarni qay yo'sinda yig'ish tartibi bel-gilangan. Negaki, chiqindilarni tashlash uchun to'la-to'kis sharoit yaratilgandagina fuqarolarga tartib-qoidani sing-dirishimiz oson bo'ladi. Shuningdek, hujjatda chiqindilarni yig'ishga davlat xususiy shirkatlarni jalb qilish nazarda tutilmoqda, Aholiga qulay sanitariya-gigiyena sharoitlarini yaratish, turistik jozibadorlikni oshirish va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish maqsadida esa 2024-yil 1-may-dan boshlab tadbirkorlik subyektlariga jamoat joylari, ijti-moiy obyektlar va aholi punktlarining belgilangan joylarida sanitariya-gigiyena shoxobchalarini tashkil etish huquqi beriladi. Bunda, tuman (shahar) hokimliklari jamoat sa-nitariya-gigiyena shoxobchalarini qurilishi mumkin bo'lgan joylarning dislokatsiyasini hamda mazkur hududdagi in-fratuzilma obyektlari va aholi harakati gavijumligi darajasi to'g'risidagi ma'lumotlarni "E-aution" tizimida alohida veb-sahifada e'lon qilib boradi. So'ng ayni shoxobchalar tadbirkorlik subyektlariga mulk yoki ijara huquqi asosida beriladi. Yig'ib olingan chiqindilarni qayta ishlashni yoki ekologik xavfsiz tarzda utilitatsiya qilishni yo'lga qo'ygan tadbirkorlarga "yashil subsidiyalari" ajratiladi. Bu juda qulay imtiyoz hisoblanadi. Mazkur imtiyozlar chiqindi tashlash qutillarini yanada ko'paytirish omili hamdir. Shuningdek, yangi o'rnatiladigan tartib intizom va jazolash mexanizmi tabiatni chiqindilardan tozalaydi.

Bundan tashqari, yo'l harakati qoidalarini bo'yicha dastur-iy-texnik vositalarini o'rnatgan tadbirkorlik subyektlariga ekologik huquqbuzarliklarni qayd etish va Davlat ekologik nazorat inspeksiyasiga xabar berish huquqi yaratilmoqda. Bunda, tadbirkorlik sub'ektlari undirilgan jarima mablag'la-rining 20 foiz miqdoridagi pul mukofoti bilan rag'batlan-tiriladi.


Demak, har bir shaxs chiqindilarni duch kegan joyga tashlab ketishi oqibatida jarimaga tortilishidan nafaqat ekologik manfaatdorlik, balki moddiy rag'bat ham borligi-ga alohida ahamiyat berishi lozim. Shu bilan birga, Milliy gvardiya va ichki ishlar xodimlari tomonidan ekologik huquqbuzarliklar bo'yicha javobgarlikka tortish choralari ko'rilishi va "Xavfsiz shahar" integratsiyalangan tizimi doirasida kameralar orqali ekologik huquqbuzarliklarni aniqlash tizimi ham joriy etiladi.

Bexroz JO'RAYEV,

Sirdaryo tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

6 SUD ZALIDAN

Turmushning mushti bor deyishadi. Ularning oilasida ham gohida "san-man" bo'lib turardi. Ammo bu er-xotin orasida xiyonat aralashuviga bahona bo'lolmaydi.



Alam, nafrat, o'ziga nisbatan adolatsizlik... Nega?

Mohira bilan Orzibek (ismlar o'zgaritilgan) ham ne-ne orzu-havaslar bilan oltin ostona hatlashgan. Bir yil o'tib qiz farzandlik bo'lishdi. Hammasi risoladagidek, hayot davom etardi. Oradan yillar o'tdi. Orzibekning ko'ngliga o'g'il qayg'usi tushdi, to'y qilsam, elga osh bersam degan xayolga o'ralashib qoldi. Mohiraning sog'ligi yaxshi emasligidan, erkakning fe'li torligidan er-xotin o'rtasiga sovuqchilik tusha boshladi. Shifokor ko'rigidan o'tgan Mohiraga saraton tashxisi qo'yildi. Ayolning ruhi sindi, iztiroblarga ko'milib qoldi. Ammo "yolg'iz qizim uchun yashashim kerak", degan ahd bilan Turkiya davlatiga davolanish uchun kuch topdi, imkon topdi. U olti oy muddat Turkiyada davolanishda bo'ldi. Oktabr oyidan bahorning ilk oyiga qadar musofirlikda dard bilan olishgan Mohira ancha o'ziga kelib, dardi biroz chekingach, oilasi, qizini sog'inib o'z yurtiga, uyiga qaytarkan, ko'p narsalar o'zgarib ketganini bilmasdi, tasavvur ham qilmasdi...

Orzibek xotini davolanishga ketgan kunlarning birida Chimyon tog'lariga sayohatga chiqib, Lola ismli ayol bilan tanishib qoladi. O'z hayoti, yalchib-yalchimagan turmushi, xotining dardi bilan to'zg'ib o'tgan umridan o'ksinib unga dardini doston qildi. Orzibekning iztiroblariga o'zicha sherik bo'lgan ayol "Siz boshqaga uylanishingiz mumkin-ku, axir dunyoga bir marta kelasiz! Baxtli bo'lishga haqqingiz bor", deya maslahat berdi. Shu tobda Orzibek

uchun oila muqaddasligi, xotini va qizining ko'nglini o'ylash tushunchalari o'z qadrini yo'qotgandek bo'ldi. U o'zining guldek oilasini mana shu betayin ayolga almashtirishga tayyor edi. Birovning oilasini buzishdan tap tortmaydigan, yengil hayotga o'rgangan ayol uchun esa bu ayni muddao edi.

Tabiiyki, uncha-munchaga aqli yetib qolgan qizi otasidagi o'zgarishlarni sezgandek bo'lar, otasining onasiga xiyonat, o'ziga nisbatan adolatsizlik qilayotganini fahmlab ich-ichidan ezilardi. Ammo u alamini ichiga yutib, onasiga ham bildirmaslikka ahd qilgandi. Biroq... Bir kuni Zarnigor nogahon otasining telefonidagi SMSlar, teleg-ramdagi ayol kishidan kelgan behayo, beparda so'zlaru sharmsiz suratlarini ko'rib chiday olmadi. Otasidan nafratlandi.

Zarnigor onasi qaytgach, uning tuzalayotganini ko'rib quvondi. Shuning uchun ham bo'layotgan noxushliklarni onasidan yashirdi, uning dilini og'ritgisi kelmadi. Ammo bir kuni u hammasini aytishga majbur bo'ldi. Mohira avvaliga qizining gapiga ishonmadi, ammo shubha-gumonlar bilan erini kuzatdi. Telefonini titib, qizining aytganlariga o'zi ham guvoh bo'ldi... Alam qildi, ichida isyon paydo bo'ldi. Ayolning telefon raqamini olib, u bilan bog'landi. Qancha janjallar bo'lib o'tdi. Oiladan fayz ko'tarildi. Alamzadalik va xiyonat Mohirani aql-hushidan ayirgandi. U nima qilsam undan o'ch olaman, degan tizginsiz o'y-xayollar girdobida qoldi. Nihoyat o'ch olishning yo'lini topganday ham bo'ldi. Eri bilan don olishib yurgan ayolga "Sening hayosizlarcha tushib erimga yuborgan suratlarim mening qo'limga. Agar menga 1000 AQSh dollarini tez orada yetkazib kelmasang suratlarimni ijtimoiy tarmoqlarda ko'rsan!" deya iddao qilib, oqibatda o'ziga jabr qildi. Chunki Mohira yurtimizda shaxs erkinligi, huquqlarining himoyalaniishi kafolatlangani, qonunga zid ishlar javobgarlikni keltirib chiqarishini o'ylaydigan holatda emasdi...


Garchi Orzibek hamda Lolaning qilmishi qonunlarimizga, axloq normalariga, qadriyatlarimizga, oila sha'niga mos kelmasa-da, Mohiraning alam ustidagi qilmishini oqlab bo'lmadi. U o'zi bilmagan holda jinoyatga qo'l urdi. Mohira insonga tahdid qilib, Lola uchun sir saqlanishi lozim bo'lgan hayosiz suratlarini oshkor qilish bilan qo'rqitib, tovlamachilik qildi. Lola esa IIBga ariza bilan murojaat qilib, Mohiraga tuzoq qo'yadi. Reja asosida olib borilgan tezkor tadbirda Mohira 5 million 250 ming so'm miqdoridagi kimyoviy ishlov berilgan pulni olgan vaqtida IIB xodimlari tomonidan xolislar ishtirokida qo'lga olindi.

Jahl chiqqanda aqlni jilovlash qiyin. Shu ma'noda vajohat, alam ustida jinoyatga qo'l urgan ayol qilmishidan pushaymon. U o'zi bilmagan holda o'ziga nisbatan adolatsizlik qildi. O'z oilasi sha'nini asrab qolmoqchi bo'lib, qaltis yo'lni tanlagan Mohiraga tegishli jazo tayinlandi.

Akrom ARIPOV,
Oliy sud bosh konsultanti

Quvasoylik yurtdoshimiz, yakka tartibdagi tadbirkor Gulhoyo Abidjanova savdo do'konini ochib, o'z faoliyatini yo'lga qo'yadi. Xayrli ishga qush qanotini qoqibdi, deganlaridek, vaqt o'tishi bilan Gulhayoning ishlari sekin-asta yurisha boshlaydi. Binobarin, u savdo do'konini jihozlashni rejalashtiradi.

Tadbirkor manfaati apellyatsiya sudida himoyalandi



Shu maqsadda tashqi iqtisodiy faoliyat "Milliy bank"ning Farg'ona viloyat filialiga kredit so'rab murojaat qiladi. Kredit ta'minoti sifatida tadbirkor Quvasoy shahriining "Polmon" mahallasi-da joylashgan, turmush o'trog'i R. Eskandervga tegishli savdo do'konini yerdan foydalanish huquqi bilan, shuningdek, fuqaro I. Norqobilovga qarashli, shaharning "Soy bo'yi" mahallasidagi ofis bino-inshootlarini garovga qo'yadi. Natijada 2022-yil 16-noyabrda bank va G. Abidjanova o'rtasida 787661-sonli kredit shartnomasi tuzilib, savdo do'konini jihozlash uchun yillik 14 foiz ustama to'lash sharti bilan 5 yil muddatga, 12 oylik imtiyozli davr bilan 100 million so'm miqdorida kredit ajratiladi. So'ngra mijoz taqdim qilgan to'lov topshiriqnomasiga binoan, kredit mablag'i maishiy texnika yetkazib beruvchi yakka tartibdagi tadbirkor D. Siddiqovning hisob raqamiga o'tkazib beriladi.

Ammo oradan 3 oy o'tib, bank mas'ullari tomonidan ajratilgan kreditning maqsadli sarflanishi bo'yicha o'tkazilgan monitoringda 94 million 100 ming so'mlik jihozlar olinmagani to'g'risida dalolatnoma tuziladi. Natijada Savdo-sanoat palatasi Farg'ona viloyat hududiy boshqarmasi TIF "Milliy bank" Farg'ona viloyat filiali manfaatin ko'zlab, sudga da'vo arizasi bilan murojaat qiladi. Aniqlik, da'vogar ajratilgan kredit maqsadli sarflanmaganini asos qilib, kredit mablag'ini muddatidan oldin undirish va undiruvni garov mulkiga qaratishni so'raydi. Fuqarolik ishlari bo'yicha Farg'ona tumanlararo sudining 2023-yil 3-iyuldagi hal qiluv qarori bilan esa da'vo talabi qanoatlanirilib, tadbirkor G. Abidjanovadan bank foydasiga 100 million so'm kredit qarzdorligini undirish hamda undiruvni garovga qo'yilgan mulklarga qaratish belgilanadi. Biroq qo'shimcha javobgar R. Eskanderv bundan norozi bo'lib, apellyatsiya shikoyatini keltirgan holda hal qiluv qarorini bekor qilishni so'radi.

Farg'ona viloyat sudining apellyatsiya instansiyasi birinchi bosqich sudining hal qiluv qarori bilan kelishmadi. Chunki, fuqarolik ishida G. Abidjanovanning kredit shartnomasini jiddiy buzgani (muntazam ravishda kredit to'lovlarini amalga oshirmagani yoki ajratilgan kredit mablag'ini o'z manfaatlariga yo'lida ishlatib yuborgani)ni tasdiqlovchi va boshqa muhim ahamiyatga ega dalillar mavjud emas. Ammo birinchi instansiya sudi mazkur holatlarni o'rganmay, ularga huquqiy baho bermay, da'vo talabini qanoatlantirish to'g'risida barvaqt xulosaga kelgan.

Sud ishni apellyatsiya tartibida ko'rib chiqqach, o'z ajrimi bilan ishni yangidan ko'rish uchun yubormasdan hal qiluv qarorini o'zgartirishga yoki hal qiluv qarorini butunlay yoki qisman bekor qilishga va yangi hal qiluv qarori chiqarishga haqli. Ana shu asoslarga tayangan Farg'ona viloyat sudi apellyatsiya shikoyatini qanoatlantirdi. Ya'ni fuqarolik ishlari bo'yicha Farg'ona tumanlararo sudining 2023-yil 3-iyuldagi hal qiluv qarorini bekor qilib, Savdo-sanoat palatasi Farg'ona viloyat hududiy boshqarmasining da'vosini rad etish to'g'risida ajrim chiqardi.

Xulosa o'rinda aytganda, Prezidentimiz tomonidan tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish sudlar zimmasidagi eng dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilangan. Chunki soha vakillarining mashaqqatli mehnati evaziga mamlakatimiz iqtisodiyoti tobora taraqqiy etib bormoqda. Qolaversa, hamyurtlarimizning, bandligini ta'minlash ham asosan tadbirkorlik faoliyati hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Rahimjon QOSIMOV,
Farg'ona viloyat sudi sudyasi

Yangilangan Konstitutsiyada fuqarolarning erkinligi va shaxsiy daxlsizlik huquqi yanada kengaytirildi. Bunda, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalaridan kelib chiqib, "Xabeas korpus akti" va "Miranda qoidasi" konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi.

INSON VA TADBIRKOR MANFAATI YANADA MUSTAHKAMLANMOQDA

Jumladan, tergov ustidan sud nazoratini ta'minlash maqsadida uy-joyda tintuv o'tkazishga hamda har kimning yozishmalari, telefon orqali so'zlashuvlari, pochta, elektron va boshqa xabarlar sir saqlanishi huquqi cheklanishiga faqat qonunga muvofiq hamda sudning qaroriga asosan yo'l qo'yilishi mumkinligi belgilandi.

Qayd etish kerakki, Prezidentimizning 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida 2024-yil yakuniga qadar qonunda belgilangan asoslarda tezkor-qidiruv va tergov harakatlariga sanksiya berish masalasini alohida sudyalari – tergov sudyalari tomonidan ko'rib chiqish tartibini joriy etish belgilangan. Bu esa inson huquq va erkinliklarini ta'minlash kafolatlari sezilarli kuchaytirishga xizmat qiladi. Tergov organlari tomonidan noqonuniy, asossiz hibsga olish va saqlashga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaxsni sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi belgilanib, ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shartligi mustahkamlab qo'yildi. Shuningdek,

"O'zbekiston – 2030" strategiyasining 84-maqsadida ham videokuzatuv tizimlari bilan jihozlalmagan tergov hibsonalarida ayblanuvchi va sudlanuvchilarni ushlab turishni taqiqlash nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida inson huquqlari kafolatini ta'minlashga oid yana ayrim tartiblar ham joriy etiladi. Xususan, tadbirkorlik sohasida javobgarlikni yanada liberallashtirish maqsadida 2024-yil 1-yanvardan boshlab birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxslar, agar ular sud maslahatxonaga kirgunga qadar soliqlar va yig'imlar, penyalari va boshqa moliyaviy sanksiyalar tarzida davlatga yetkazilgan zararning o'rmini to'liq qoplagan taqdirda, javobgarlikdan ozod qilinadi. Tadbirkorlik subyektlariga nisbatan qo'zg'atilgan har bir jinoyat ishi bo'yicha tergov hamda sud jarayonida tegishli mansabdor shaxs jinoyat ishi materiallarini ish yurituviga qabul qilgan vaqtdan boshlab tadbirkorni himoya qilishga Biznes-ombudsman, Savdo-sanoat palatasi, tadbirkorlik subyekti a'zo hisoblangan boshqa tashkilot jamoa himoyachisi sifatida jalb etiladi (xabar qilinadi). Tergovga qadar tekshiruv jarayoniga jalb etilgan shaxslarning protsessual maqomi aniqlashtirilib, ushbu toifadagi shaxslarni gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi va guvohga tenglashtirgan holda ularning huquq va majburiyatlaridan foydalanish belgilanadi.

Ayni paytda tergovga qadar tekshiruv bosqichida ishtirok etadigan shaxslarning (jinoyat haqida xabar bergan shaxs, jinoyatning guvohi bo'lgan shohid va gumondor shaxs) aniq huquqliy maqomi Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilmagan. Mazkur tartiblarning joriy etilishi tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini himoya qilish samaradorligini oshiradi.

Sunnat MAHMUDOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi

Geografik ko'rsatkich – ma'lum bir geografik hudud xususiyatlariga xos yoki nomdor tovarlarda paydo bo'ladigan belgidir. Muhimi, faqat ma'lum bir hududga nisbatan mahsulotning kelib chiqishini ko'rsatsagina, geografik ko'rsatkich sifatida baholanadi.

GEOGRAFIK KO'RSATKICH BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING YANGI DRAYVERI

Agar biror mahsulot yoki voqelik e'tirof etilsa, o'sha mahsulot yetishtirilgan yoki ishlab chiqarilgan hudud ko'z oldimizda gavdalanganadi. Masalan, "Kulolchilik" yoxud "Uzum" deganda Rish-ton hunarmandlari va Oltiariqlik mirishkorlar tasavvurimizda paydo bo'ladi. Mana shu holatni "geografik ko'rsatkich" ga qiyoslash mumkin.

Intellektual mulk sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 3-martdagi "Geografik ko'rsatkichlar to'g'risida"gi qonunida ham o'z ifodasini topgan. Unga muvofiq, tovarning muayyan geografik obyekt hududidan kelib chiqqanini identifikatsiyalovchi belgi geografik ko'rsatkich deb e'tirof etiladi. Ya'ni tovarning sifati, nom qozongani va boshqa xususiyatlarining geografik jihatdan kelib chiqishiga bog'liq bo'ladi.

Shu o'rinda savol tug'iladi: xo'sh, geografik ko'rsatkich mamlakatga nima beradi?

Avvalo, bu iste'molchilarning ma'lum tovarlarga bo'lgan qiziqishi va e'tiborini oshirishga yordam beradi. Natijada "kelib chiqish joyi" haqidagi ma'lumotlar iste'molchini mahsulotning o'ziga xos xususiyati haqida xabardor qiladi. Mahsulot, uning xususiyatlari va geografik

joylashuv o'rtasidagi bog'liqlik kabi omillar intellektual mulk obyektining paydo bo'lishiga yordam beradi. Qolaversa, bozorda mahsulotni individuallashtirishning bunday vositalari iste'molchilarga uni geografik ko'rsatkichlaridan kelib chiqib farqlash imkonini beradi.

Geografik ko'rsatkichlar odatda oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va sanoat mahsulotlari uchun qo'llaniladi. Geografik ko'rsatkichlar bilan aniqlangan mahsulotlar ko'pincha an'anaviy jarayonlar va bilimlarning, shuningdek, asrlar davomida saqlanib kelingan qadriyatlar natijasidir.

Bundan tashqari, geografik ko'rsatkichlar bilan aniqlangan mahsulotlarni sotish ko'pincha boshqa ijobiy ta'sirlarni ham keltirib chiqaradi. Masalan, turizm va ovqatlanish sohasida nafaqat ish o'rnlari yaratish hamda daromadlarning o'sishi shaklida, balki mintaqaga e'tiborni jalb qilish, mintaqaviy brendlarni shakllantirishga, mintaqaviy farovonligining o'sishiga olib keladi. Mintaqaviy brendlarni huquqiy himoya qilish imkoniyatlarini kengayishi tufayli mahalliy ishlab chiqarish "jonlanadi".

Hozirgi kunga qadar yurtimizda 5 ta geografik ko'rsatkichlar ro'yxatdan o'tgan. Bular – "Zomin tandir go'shti", "Marg'ilon atla-

si", "Marg'ilon adrasi", "Qo'qon pichoqlari" va "G'ijduvon shashlik", "G'uzor tandir go'shti".

Ta'kidlash lozimki, respublikamizning deyarli barcha hududlarida tovar kelib chiqqan joy nomi va geografik ko'rsatkichlar sifatida ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin bo'lgan mahsulotlar juda ko'p. Masalan, "Samarqand noni", "Parkent uzumi", "Namangan olmasi", "Zomin asali", "Varganza anorlari", "Xorazm guruchlari", "Sirdaryo balig'i", "Nurota qorako'li", "Qo'qon gilosi" va shu kabi mahsulotlar yurtimizdan tashqarida ham avvaldan mashhur bo'lib, iste'molchilar ushbu tovarlarning sifati hamda nom qozongani uchun juda qadrlaydi.

Belgini geografik ko'rsatkich sifatida ro'yxatdan o'tkazish uchun mahsulot maxsus xususiyatlarga ega bo'lmasligi mumkin. Qolaversa, ariza beruvchi maxsus xususiyatlarini isbotlashi ham shart emas.

Geografik hududda tovarni ishlab chiqarishning barcha bosqichlari amalga oshirilishi shart emas. Bu afzalliklarni hisobga olsak, talabnoma beruvchilar uchun qulay himoya talablari ta'minlanadi. Tovar belgilaridan farqli ravishda, geografik ko'rsatkichlar o'ziga xos xususiyatga ega. Chunki geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqi egalari undan foydalanish uchun litsenziya bera olmaydi.

Geografik ko'rsatkichdan foydalanish huquqini olish uchun avval Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tiladi. Guvohnoma 10 yilga berilib, har safar shuncha muddatga uzaytiriladi.

Dildora RASULOVA,
Adliya vazirligi mas'ul xodimi

BILASIZMI?

Mehnat kodeksining 129-moddasi-ga ko'ra, ishga qabul qilish chog'ida dastlabki sinov qo'llaniladi. Ish beruvchi bunday sinovni qo'llab, xodimning topshirilayotgan ishga muvofiqligini tekshiradi. Shuningdek, dastlabki sinovda mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan ishni davom ettirish maqsadga muvofiqligi haqida xodim tomonidan qaror qabul qilinishi ham inobatga olinadi.



DASTLABKI SINOV MUDDATI KIMLARGA TATBIQ ETILMAYDI?

Dastlabki sinovdan o'tish mehnat shartnomasida shartlashilgan bo'lishi kerak. Bunday shartlashuv mavjud bo'lmagan taqdirda, xodim dastlabki sinovsiz ishga qabul qilingan deb hisoblanadi.

Quyidagilar ishga qabul qilinganda dastlabki sinov belgilanmaydi:

- ☑ homilador ayol, uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayol yoki uch yoshga to'lmagan bolani yolg'iz o'zi tarbiyalayotgan ota (vasiy);
- ☑ xaziraga qo'yiladigan ish o'rnlari ishga joylashtirish uchun yuborilgan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo'lgan shaxslar;
- ☑ davlat grantlari asosida o'qigan va oliy ta'lim tashkilotini tamomlagan kundan e'tiboran uch oy ichida yig'illanma bo'yicha olingan mutaxassisligiga doir ishga kirayotgan oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari;
- ☑ tegishli ta'lim tashkilotini tamomlagan kundan e'tiboran bir yil ichida birinchi bor ishga kirayotganda olingan mutaxassisligi bo'yicha mustaqil ravishda ishga joylashayotgan umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari;
- ☑ o'zi bilan olti oygacha muddatga mehnat shartnomasi tuzilayotgan xodimlar;
- ☑ o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxslar;
- ☑ ishga qaytadan qabul qilingan taqdirda ish beruvchi avval qaysi xodimlar bilan mehnat shartnomasini alohida asoslar bo'yicha bekor qilgan bo'lsa, o'sha shaxslar;
- ☑ ishlab chiqarishda o'qitish shartnomasi bo'yicha ushbu ish beruvchida o'qishni o'tagan o'quvchilar;
- ☑ jamoa kelishuvlarida, shuningdek jamoa shartnomasida va ish beruvchining ichki hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa xodimlar.

Dastlabki sinov faqat xodimni ishga qabul qilish chog'ida belgilanishi mumkin. Xodim boshqa ishga o'tkazilayotganda va boshqa ish beruvchiga xizmat safariga yuborilganda dastlabki sinov belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Xurshid SHARIPOV,
Boysun tuman adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi yetakchi mutaxassisi

8 DOLZARB MAVZU

BMT Jahon cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2050-yilda dunyo aholisining to'rtidan uch qismi qurg'oqchilikdan aziyat chekadi.

Suvdan oqilona foydalanish bugungi kunda har qachongidan ham dolzarb. Suv sayyoramizdagi noyob ne'matlardan biri hisoblanadi. Biz doim suvning cheklangan resurs ekanini yodda tutishimiz lozim. BMT Jahon cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, 2050-yilda dunyo aholisining to'rtidan uch qismi qurg'oqchilikdan aziyat chekadi.

O'ziga xos iqlim sharoitiga ega bo'lgan O'zbekiston uchun suvni samarali va tejamlorlik bilan ishlatish masalasi doimo dolzarb ahamiyat kasb etgan. O'zbekistonda suvdan tejamlor foydalanish yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Mamlakatimiz suv resurslarining 90 foizi qishloq xo'jaligi uchun sarflanadi. Suv taqchilligi asosiy muammolardan biriga aylanayotgani sababli yurtimizda har yili 7 mlrd. m³ suvni tejash choralarini ko'riladi. Tizimga suvni tejovchi texnologiyalarning keng tatbiq etilishi, yerlarni lazerli tekislash amaliyoti kirib kelgani, kanal va ariqlarni keng miqyosda betonlash ishlari boshlanganligi sababli suvning sarfi sezilarli darajada kamaymoqda.

O'zbekistonda iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatishning ustuvor yo'nalishlari va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlariga bag'ishlangan bir qancha konseptual hujjatlar qabul qilingan. "2030-yilgacha bo'lgan davrda Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi", "Suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasi", "2020-2025-yillarda gidrometeorologiya xizmatini rivojlantirish konsepsiyasi", "Suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirishning 2021-2023-yillarga mo'ljallangan strategiyasi", "Suv resurslaridan foydalanish sohasida davlat boshqaruvi va nazorat tizimini yanada takomillashtirish hamda suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar shular jumlasidan.

Prezidentimizning 2023-yil 11-sentabrda "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan strategiyaning uchinchi yo'nalishi ham suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liqdir.



SUV RESURSLARINI TEJASH NIMA UCHUN ZARURLIGINI BILASIZMI?

Mazkur "O'zbekiston - 2030" strategiyasining 62-bandida respublikada suvdan oqilona foydalanish madaniyati va suv ishlatish samardorligini oshirish borasida 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samardorlik ko'rsatkichlari keltirib o'tilgan. Xususan:

- ☑ suv ishlatish samardorligini 25 foizga oshirish, qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda suv tejadigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 2 million gektargacha, shu jumladan tomchilab sug'orish texnologiyasini 600 ming gektargacha yetkazish;
- ☑ tuproq qoplamali kanallarni beton qoplamaga hamda ichki sug'orish tarmoqlarining yopiq quvurli sug'orish tizimlariga o'tkazish bo'yicha yetti yillik dastur doirasida irrigatsiya tizimi va sug'orish tarmoqlarining foydali ish ko'effitsiyenti ko'rsatkichini 0,73 gacha yetkazish;
- ☑ uzoq muddatga mo'ljallangan respublikaning suv resurslari balansini ishlab chiqish va uning ustidan doimiy monitoring o'rnatish tizimini joriy qilish;
- ☑ suvni qayta ishlash, yetkazish va taqsimlash tizimiga xususiy sektorni jalb etish, dalalarga suv yetkazadigan obyektlarni tadbirkorlar (fermer xo'jaliklari va klasterlar) boshqaruviga berish;
- ☑ Qo'shni davlatlar bilan suv resurslarini integrallashgan holda boshqarish, transchegaraviy suv resurslari va davlatlararo suv xo'jaligi obyektlaridan birligida foydalanish masalalarida faol ikki taraflama manfaatli hamkorlikni davom ettirish;

surslarini integrallashgan holda boshqarish, transchegaraviy suv resurslari va davlatlararo suv xo'jaligi obyektlaridan birligida foydalanish masalalarida faol ikki taraflama manfaatli hamkorlikni davom ettirish;

- ☑ suvni tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarning yillik quvvatini 300 ming gektarga yetkazish;
- ☑ barcha ichimlik suvi iste'molchilariga hisoblagichlar o'rnatishni ta'minlash;
- ☑ ichimlik suvining sifati, ichimlik suv bilan ta'minlanganlik darajasi, suv ta'minoti va kanalizatsiya korxonalari samardorlik ko'rsatkichlarini joriy etish.

2023-yilning 29-noyabr kuni bo'lib o'tgan qishloq xo'jaligida suv resurslaridan oqilona foydalanish va yo'qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlariga bag'ishlangan videoselekt yig'ilishida mamlakatimiz rahbari bir yil davomida suvni tejash bo'yicha favqulodda ish tizimiga o'tilishini ta'kidladi. 2024-yilda 1500 kilometr yirik kanallar betonlanadi, 2025-yilda kamida 2 ming kilometrdan kanallarni betonlashga o'tiladi. Mamlakatimizda 4,3 million gektar sug'oriladigan yerlar mavjud bo'lib, shundan 30 foiziga suvni tejovchi texnologiyalar joriy etilgan. Bunday klaster va fermer xo'jaliklarida suv 30-40 foizga, o'g'it va yoqilg'i esa 25-30 foizga tejalmiqda. Eng muhimi, suvni tejash bilan bir qatorda hosildorlik ham oshgan.

SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI JORIY QILISH UCHUN 14 FOIZLIK KREDIT AJRATILADI

Endilikda, maxsus platforma orqali klaster va fermer xo'jaliklariga suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish uchun 2 yillik imtiyozli davr bilan 5 yilga 14 foizlik kredit ajratiladi. Suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha Turkiya, Ispaniya, Xitoy kabi davlatlarning tajribasi o'rganilishi va tatbiq etilishi belgilandi. Kelgusi 3 yil davomida qishloq xo'jaligi texnikasining 15 foiz hamda lazerli tekislagichning 30 foizini subsidiyalash amaliyoti davom ettirilishi hamda 2026-yildan keyin lazerli tekislanmagan yerlarga nisbatan yer va suv soliqlari keskin oshirilishi ta'kidlandi.

Ayniqsa, suvdan oqilona foydalanish madaniyatini mamlakatimizning barcha hududlarida keng targ'ib etish kelajak avlod uchun juda muhim hisoblanadi. Bu boradagi davlat dasturlarining samarali ishlashida yoshlarning suvdan foydalanish madaniyatini oshirish hamda ichimlik suvi uchun bozor narxlarini joriy etish lozim.

Bundan tashqari, iste'molchilarning suvdan noratsional foydalanishi, bir tomondan, suvdan foydalanish madaniyatining pastligi, ikkinchi tomondan, aholining salmoqli qismida suvni tejashga qaratilgan rag'batlantirish tizimining yo'qligi bilan bog'liqdir. Aholi o'rtasida suvdan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirish bo'yicha doimiy, ya'ni "oilal - bog'cha - maktab - universitet" shaklida tizimli ishlarni amalga oshirish zarur.

Singapur, Niderlandiya, Shvetsiya kabi ko'plab rivojlangan xorijiy mamlakatlarda suvdan oqilona va tejamlorlik bilan foydalanish madaniyati yo'lga qo'yilgan. Shu boisdan ham bu mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rganishimiz muhimdir. Yosh avlodni suvga g'amxo'rlik qilish ruhida tarbiyalash kelajakda suv bilan bog'liq ko'plab muammolarning oldini olishga imkon beradi. Aholi va iqtisodiyot tarmoqlari sifatli suv bilan to'liq ta'minlanishi aholi va tadbirkorlik subyektlarining suvdan foydalanish madaniyatini yuksaltirishga bog'liqdir.

Asal JO'RAYEVA,

Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi

**INSON
va qonun**

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan

ISSN 2020-7897

7720107781004

**Bosh
muharir**
Asliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Akbar Musayev
Xayotjon Klichev
Sevara O'rinboyeva
Yorbeq Iskandarov
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqir
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Xurshid Sultonov
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashtirilgan tahririyati kompyuter bazasida teriladi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasi-da chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mayve, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraj - 4088
Buyurtma - 291

Topshirish vaqti - 19:00
Topshirildi - 19:00

MANZILIMIZ:

100060, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5